

Mashhura ASROROVA

KITOB MENING HAMROHIM

MAJBURIY NUSXA

Qarshi
«Nasaf» nashriyoti
2013

84(59)7-9,5.afaδ.

UO'K O'z.2

KBK 84 (50'zb)-3


A 91

Mashhura Asrorova bolalarcha sof tuyg'ularini she'riyat orqali ifodalashga harakat qilibdi.

Uning mashqlarida samimiy va sodda ohangdorlik o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Mashhura qizimizga yanada ko'proq o'qib o'rganishni, ijod mashaqqatlaridan cho'chimaslikni tilaymiz.

HO 41391
0



A $\frac{4702620201-35}{376(04)2013}$ 35-2013 © M. Asrorova, 2013 yil.

© "Nasaf" nashriyoti, 2013 yil.

ISBN 978-9943-18-138-0

KITOB MENING HAMROHIM

Kunlar o'tib ketyapti,
Fursat yaqinlashyapti.
Shuning uchun men ko'proq,
Kitob o'qiyman.

Dadam o'qi deydilar,
Ustoz o'qi deydilar.
Shuning uchun men ko'proq,
Kitob o'qiyman.

Maktabda ham, uyda ham,
Oromgohu, yo'lda ham.
Yo'ldoshim va sirdoshim,
Kitob mening hamrohim.

O'ZBEKISTON

O'zbekiston bog'u-chamanim,
O'zbekiston nurli bo'stonim.
Osmoningdan o'rgilay, yurtim,
Ona Vatan go'zal diyorum.

CHIROYLI BOG'

Xolam uyi yonida,
Bir chiroyli gulshan bor.
Ko'rgan ko'z quvonadi,
Juda go'zal bo'ston bor.
Bulog'i bor shifobaxsh,
Mevasi bor, boli bor.
Keling, dilingiz yayrar,
Olmayu anori bor.

JAJJI GO'ZAL

Yetti go'zal ichida,
Bir go'zali chiqadi.
Eng go'zal, eng chaqqoni,
Eng bilimdoni.
Yetti go'zal ichida,
Eng go'zali, eng jajjisi bo'laman.

ONAJONIM

Oymisiz, quyoshmisiz?
Osmonda yo'ldoshmisiz.
Biz uchun porlab turgan,
Onajonim bormisiz.

QIZALOQ

Katta qiz bo'laman,
Sakkiz yoshga to'laman.
Dadam, oyim, opamdan,
Katta sovg'a olaman.

Qaldirg'ochlar uchadi,
Ko'k bag'rini quchadi.
O'qib, bilim olaman,
Aqlli qiz bo'laman.

ASSALOM!

Assalomdan boshlanur odobning o'zi,
Assalomdan boshlanur quyoshning yuzi.
Assalom bu odobning ko'rki va naqshi,
Assalomdan boshlanur o'zbekning so'zi.

FARISHTA

Farishtajon-farishta,
Oq libosli go'zalcha.
Husning oyday chiroyli,
Nozik patli ipakcha.

Yaxshilikni istaysan,
Yurtga tinchlik tilaysan.
Bolalar yaxshi bo'lsin,
Deya bugun kuylaysan.

Farishtajon-farishta,
Oq libosli go'zalcha.
Husning oyday chiroyli,
Nozik patli ipakcha.

YANGI YIL

Bayramlar olamida,
Ajrilib turar biri.
Yangi yil eng fayzli,
Yangi yilning ko'p siri.

Keladi qorbobolar,
Qorqizu quyonchalar.
Bizga yoqar bu bayram,
Yangi yil yangi olam.

OPAJONIM

Opajonim-opajon,
Mehri daryo opajon.
Yordamlashar darslarga,
O'qishga-yu she'rlarga.
Go'zallikda tengi yo'q,
Opajonim-opajon.
Hamisha bo'ling omon,
Mehribonim opajon.

ONAJON

Allangiz biram mayin,
Mehringiz quyosh misol.
Alla ayting onajon,
Chulg'asin shirin xayol.
Mehrigiyo oftobim.
Ham quyoshim, mohtobim.
Ko'zlaringiz oftobday,
Porlab turar onajon!

OTA

Otajanim-mehribonim,
Yurak-qalbi nur bo'stonim.
Bizni quchib suyasiz,
Nima desak qilasiz.
Otajanim-mehribonim.

BAHOR

Yurtimning bahori kirib kelibdi,
Osmon-u ko'kka parvoz qilibdi.
Bahorning sovg'asi bu sumalakdir,
Tabiat jilosi bu kamalakdir.
Niyat gulg'unchasi bugun kelibdi,
Navro'zni elimga tuhfa qilibdi.
Osmonda uchadi rango-rang varrak,
Hamma bu quvonchga sherik bo'libdi.

BUVIJONIM

Oppoq sochli buvijonim,
Ertaklari ovunchog'im.
Erkalatar doim meni,
Meni deydi asal-qandim.
Buvijonim-buvijonim.
So'zlari oltinga tengdir.
Buvijonim bag'ri kengdir,
Urushmaslar hecham bizni.
Buvijonim-buvijonim,
Mehri daryo buvijon!

ERTAKLAR

Ertaklar olamida,
Yashar barcha bolalar.
Uchib yurar ertakda,
Hatto quyosh, hatto oy.
Yaxshilikka ertaklar,
Bolalarni yetaklar.

MAKTAB

Ta'riflarga til o'jiz,
Bizning maktabimizning.
Gullar o'sar bag'rida,
Daraxtlar meva tugar.
Ustozlari mehribon,
Bog'da shodon yurasiz.
Bizning maktabimizni.
Kelsangiz bir ko'rasiz.

KAPALAK

Uchib yurar osmonda,
Turli xil kapalaklar.
Biri qizil, biri ko'k,
Nozik qanot kapalak.
Tezroq uch, balandroq uch,
Do'stlaringga yetib ol.
Ularning yonida uch,
Nozik qanot kapalak.
Go'zal qanot kapalak.

VATAN

Vatan mag'rurliging o'zingga xosdir,
O'zingga sodiq buyuk xalq bunda.
Tuproq'ing aziz, sening xalqingga,
Vatan, sen doim aziz bo'lgansan,
Aziz bo'lib qolaverasan.

Vatan, sen chiroyli, vatan, go'zalsan,
Dunyoda tenging yo'q, obod, ozodsan.
Vatan, quyosh taftingdan olar issiqlik,
Sen durdonasan, sen yagonasan.

KIM UCHUN?

Kim uchun qurildi bu maktablar?
Kim uchun qurildi bu binolar?
Kim uchun? Kim uchun?
Bu bizlar uchun,
Vatan poydevori, kamolot uchun.

ASKAR AKAMGA MAKTUB

Akam askar, mard jasur,
Vatan himoyachisi erur.
Qo'rqmaydi hech narsadan,
Vataniga berib mehr.
Men akamga xat yozdim,
Aka u yer qanday joy?
Qiyalyapsizmi juda?
Maktubimga javoban,
Akam yozibdi shunday:
Be kasb ogir juda ham,
Lekin qo'rqmayman sira,
Vatanimga sodiqman.
Kerak bo'lsa Vatanga,
Jonimni ham beraman.

QO'G'IRCHOQ

Mening qo'g'irchog'im bor,
Ko'zi munchog'im bor.
U bilan o'ynayman,
Maza qilib kuylayman.
O'yinchoqlar yasaymiz,
Unga ism tanlaymiz.
Kiyimlar ko'p tikamiz,
Tikuvchilik qilamiz.

KELINCHAKKA O'XSHAYSAN, BAHOR!

Ochilib boychechak, bahor kelganin aytib,
Hamma xursand, hamma shod.
Chunki kelibdi bahor,
Sumalaklar osildi.
Varraklar uchirildi,
Hasharga chog'landik biz.
Bahorga she'rlar bitib,
O, bahor nafis bahor.
Chiroylisan, go'zalsan,
Kelinchakka o'xshaysan.
Hammani sen qutlaysan,
Go'zallikka burkaysan.

KITOB

Ular har xil, juda ko'p,
Bilim beradi bizga.
Odob axloq o'rgatar,
Boyin egma deb yerga.
Shuning uchun, do'stlarim,
Ko'proq kitob o'qiylik.

MAKTAB

Kunlar o'tib, oylar o'tib,
Sezib qoldim yetti yoshga to'lganim bir dam.
Bordim maktabga o'sha yil bir kun,
Ichimda o'yg'ondi birdan hayajon.
Ko'rdim o'shanda go'zal maktabni,
Orzuimga erishdim, xuddi o'sha kun.
Men maktabga bordin,
Oyi, dadajon!

BAHOR

Fasllar gardishi aylanar bir zum,
Go'yoki samoda uchar oq qushlar.
Daraxtlar yechadi, qalin po'stlog'in,
Ochilib turadi uylarda gullar.
Bahor kelganidan darak beradi,
Ko'kdagi qaldirg'och hali ham elchi.
Bahorgi kayfiyat tark etmas sira.
Qozonda sumalak, ko'kda varraklar,
Bolalar kulgusi jaranglar yana.

TOG'

Yuksakka ko'tarib baland bo'yini,
O'sha zo'r tog'lar mag'rur turadi.
Bo'ynini egmaydi aslo birovga,
Chunki ular mag'rur, chunki bepoyon.
O'xshasam men ham,
O'sha mag'rur tog'larga.
Bo'yin egmasam deyman,
Hech qachon men birovga.
Qo'rqmasam mag'rur bo'lsam,
O'sha baland tog'larday.

MUNDARIJA

| | |
|-------------------------------------|----|
| Kitob mening hamrohim..... | 3 |
| O'zbekiston..... | 3 |
| Chiroyli bog'..... | 3 |
| Jajji go'zal..... | 4 |
| Onajonim..... | 4 |
| Qizaloq..... | 4 |
| Assalom!..... | 5 |
| Farishta..... | 5 |
| Yangi yil..... | 6 |
| Opajonim..... | 6 |
| Onajon..... | 7 |
| Ota..... | 7 |
| Bahor..... | 8 |
| Buvjonim..... | 8 |
| Ertaklar..... | 9 |
| Maktab..... | 9 |
| Kapalak..... | 10 |
| Vatan..... | 10 |
| Kim uchun?..... | 11 |
| Askar akamga maktub..... | 11 |
| Qo'g'irchoq..... | 12 |
| Kelinchakka o'xshaysan, bahor!..... | 12 |
| Kitob..... | 13 |
| Maktab..... | 13 |
| Bahor..... | 14 |
| Tog'..... | 14 |

ADABIY-BADIIY NASHR

Mashhura ASROROVA

KITOB MENING HAMROHIM

| | |
|------------------|------------------|
| Muharrir: | Y.Ziyodov. |
| Texnik muharrir: | Ch.Rahmonov. |
| Musahhih: | Y.Ziyodov. |
| Sahifalovchi: | Sh.Xolmurodova. |
| Badiiy bezakchi: | Sh.Alisher qizi. |

Nashriyot litsenziyasi № AI 139, 27.04.2009 yil. Terishga 6.03.2013- yilda berildi. Bosishga 19.04.2013- yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$, Times New Roman garniturasida. Ofset qog`ozi. Ofset usulda chop etildi. Shartli bosma tabog`i 0,84. Nashr bosma tabog`i 0,34. 4-2013-shartnoma. 23-buyrtma. 100-nusxada. 16 bet. Erkin narxda.

«Nasaf» nashriyoti, 180118, Qarshi shahri, Mustaqillik shohko`chasi, 22-uy.

«Qarshipoligrafnashr» MCHJda chop etildi.
180118, Qarshi shahri, Mustaqillik shohko`chasi,
22-uy.